

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

NAFISA RAXMANOVA, AROFATOY MUYDINOVA

MATNSHUNOSLIK

(O'quv qo'llanma)

Ta'lim yo`nalishi: 60111400 – O`zbek tili va adabiyoti

Toshkent
«ZEBO PRINT»
2023

UO'K

KBK

-

Raxmanova Nafisa, Muydinova Arofatoy. Matnshunoslik [Matn]:
O'quv qo'llanma. – Toshkent. Zebo Print – 2023.- 140 bet.

Mas'ul muharrir:

Adiba Rahmatova - *filologiya fanlari doktori, professor v.b.*

Taqrizchilar:

Sirdaryoxon O'tanova - *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Qodirjon Mo'ydinov - *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent.*

Mazkur o'quv qo'llanma respublika oliy ta'lim muassasalari o'zbek tili va adabiyotini o'qitish yo'nalishidagi talabalar uchun (Ta'lim yo'nalishi: 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti) mo'ljallangan bo'lib, unda matnshunoslikka oid dastlabki bilimlar majmuasi, qo'lyozma manbalarni tavsif va tasnif qilish, matn tuzishning asosiy prinsiplari, shakllari va uslubiy yo'l-yo'riqlari haqida ma'lumotlar jamlangan.

O'quv qo'llanma filologiya fakulteti talabalari, bo'lg'usi matnshunoslar va qo'lyozma merosimiz bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2023-yil, 17-iyuldagi 314-sonli buyrug'iga asosan
nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin ilgari o'rganish taqiqlangan manbalarni tadqiq etish uchun keng imkoniyat paydo bo'ldi. Ularni ilmiy-tadqiqot doirasiga kiritib, olingan natijalarni keng jamoatchilikka taqdim etish adabiyot ilmining, xususan, manbashunoslik va matnshunoslikning ustuvor vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilanganidek: "...tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur o'rganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini targ'ib etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlodimizni xalqimizning buyuk ma'naviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini tubdan oshirish" yechimini kutayotgan muammolardandir.

Mana shunday ustuvor vazifalarni bajarishni maqsad qilib tuzilgan mazkur o'quv qo'lanmadan matnshunoslik tarixi, matn tuzish tamoyillari, matn turlari, matnga turli usullarda yondashish, qo'lyozma va toshbosma nashrlar ustida ishlash singari mavzular o'rin olgan. Har bir mavzuga oid tayanch so'z va iboralar, mavzuga oid savol va topshiriqlar hamda matnshunoslikka oid atamalarning izohli lug'ati berilgan. Ma'ruza matnlarini o'zlashtirishda talaba uchun qulaylik va ko'nikmalar hosil qilish maqsadida fan doirasida o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlari uchun ilova qismi ham o'quv qo'llanmada aks etgan.

O'quv qo'llanmada yozma manbalarni qidirib topish, tartibga solish va keyingi ilmiy foydalanish uchun tayyorlash nazariyasi hamda uslubi yuzasidan ma'lumot berilgan. Shuningdek, talabalarning adabiy asarlar va tarixiy hujjatlar matni tarixi va uning manbalarini o'rganish, qo'lyozma nusxalarni farqlay olish ko'nikmasini egallashlariga qaratilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada matnshunoslikka oid dastlabki

bilimlar majmuasi, qo`lyozma manbalarni tavsif va tasnif qilish, matn tuzishning asosiy prinsiplari, shakllari va uslubiy yo`l-yo`riqlari haqida ma'lumotlar jamlangan. Shundan kelib chiqib, filologiya yo`nalishida ta'lim olayotgan talabalarni bu sohaning amaliy va nazariy jihatlaridan xabardor etish maqsad qilib qo'yilgan.

1-mavzu: Manba va matn. Matn tarixi. Matn talqini tadqiqi.

Reja:

1. *Matnshunoslik fanining obyekti va predmeti.*
2. *Manba va matn.*
3. *Matn tarixi.*
4. *Matn talqini tadqiqi.*

Tayanch soʻz va iboralar: *matnshunoslik, manbashunoslik, manba, matn, tekst, matn tarixi.*

Manbashunoslik va matnshunoslikda *matn* atamasi keng qamrovli tushunchadir. **Matn** deganda muallif ijodi mahsuli boʻlgan fikr va gʻoyaning yozuvdagi inʼikosi (tekst) tushuniladi. **Manba** esa yozma yodgorlikka nisbatan qoʻllanadi. Umumqabul qilingan taomilga koʻra esa yaxlit bir asar, qoʻlyozma nusxa, hatto bir parcha yozuv ham manba yoki matn deb yuritiladi. Ana shunday yozma yodgorliklar ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchilar manbashunos yoki matnshunos deb ataladi.

Qosimjon Sodiqov shunday keltiradi: “Manbashunoslik (*ruschada* ictchnikovedeniye) adabiyot, tarix va boshqa fanlarning yozma manbalarini, oʻtmishdan qolgan asarlarini oʻrganuvchi keng koʻlamli yordamchi sohasidir. Uning adabiy manbashunoslik, tarix manbashunosligi, fan sohasi manbashunosligi singari yoʻnalishlari bor”¹.

Adabiy manbashunoslik adabiyot tarixining turli davrlarida yaratilgan yozma manbalarni yoki muallifi nomaʼlum badiiy asarning turli davrlarda koʻchirilgan qoʻlyozma, toshbosma nusxalarini, xalq ogʻzaki ijodi namunalari tanqidiy oʻrganadi.

Tarixiy manbashunoslik tarix fani, oʻtmishda yaratilgan tarix kitoblari, yilnomalar va rasmiy hujjatlarni manba sifatida tanqidiy oʻrganadi.

Ilmiy asarlar manbashunosligi fanning biror sohasiga tegishli qoʻlyozmalarni tadqiq etadi (matematika, tabobat,

¹ Содиқов Қ. Матншунослик ва манбашунослик асослари. –Тошкент: Шарқшунослик институти, 2017.3-4 бетлар.